

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “KECHA” SHE’RIDA TABIAT VA RUHIY SOKINLIK TASVIRI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: XX asr o‘zbek adabiyoti muhitida o‘zining badiiy tafakkuri, samimiy lirizmi va falsafiy qarashlari bilan ajralib turgan buyuk shoirlardan biri bu- Aleksandr Arkadevich Faynberg. Uning nazmida inson ruhiyati, hayot falsafasi, kundalik turmushning turli lavhalari va tabiat manzaralari hamohamglikni kasb etadi. Shoir asosan sodda real hodisalar va sokin tabiat manzaralari vositasida chuqur ruhiy kechinmalarni tasvirlab beradi. Faynberg lirikasi tasvirga boylik, musiqiylik va timsollarga to‘yintirilganlik kabi fazilatlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, kitobxonni tashqi dunyodagi voqeliklarga o‘zgacha nigoh bilan nazar solishga undaydi. Tabiat tasnifi, elementlari shoir she‘riyatidagi asosiy tasvir vositalaridan hisoblanadi va shuning uchun muhim ahamiyatga ega. Faynberg uchun tabiat manzaralari oddiy fon emas, inson ruhiyati va uning xususiyatlarini ifodalovchi asosiy vosita. Ayniqsa kechki va tungi manzaralar asnosida ijodkor sokinlik, osoyishtalik va ichki mushohadani beqiyos badiiy-poetik uslubda ifodalab beradi. Mazkur maqola Aleksandr arkadevich Faynbergning “Kecha” she‘ridagi tabiat va ruhiy sokinlik tasvirini yoritib berishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: tun manzarasi, tabiat tasviri, poetik obraz, badiiy tasvir vositalari, qishloq hayoti, lirik kayfiyat, oy nuri ramzi, musiqiylik, poetik ohang, tasviriylik, ruhiy sokinlik, romantik manzara, falsafiy mushohada.

Abstract: One of the great poets of the 20th century Uzbek literature, distinguished by his artistic thinking, sincere lyricism and philosophical views, is Alexander

Arkadyevich Feinberg. In his poetry, the human psyche, philosophy of life, various scenes of everyday life and natural landscapes find harmony. The poet mainly describes deep spiritual experiences through simple real events and calm natural landscapes. Feinberg's lyrics combine such qualities as richness of imagery, musicality and saturation with symbols, encouraging the reader to look at the realities of the outside world with a special look. The classification and elements of nature are among the main means of depiction in the poet's poetry and therefore are of great importance. For Feinberg, natural landscapes are not a simple background, but the main means of expressing the human psyche and its characteristics. Especially in evening and night landscapes, the creator creates calmness, tranquility and inner contemplation. expresses in an incomparable artistic and poetic style. This article is devoted to the description of nature and spiritual tranquility in the poem "Night" by Alexander Arkadyevich Feinberg.

Keywords: night landscape, description of nature, poetic image, means of artistic depiction, village life, lyrical mood, symbol of moonlight, musicality, poetic tone, imagery, spiritual tranquility, romantic landscape, philosophical observation.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — один из великих поэтов узбекской литературы XX века, отличающийся художественным мышлением, искренним лиризмом и философскими взглядами. В его поэзии гармонично сочетаются человеческая психика, философия жизни, различные сцены повседневной жизни и природные пейзажи. Поэт описывает глубокие духовные переживания преимущественно через простые реальные события и спокойные природные ландшафты. Лирика Файнберга сочетает в себе такие качества, как богатство образов, музыкальность и насыщенность символами, побуждая читателя взглянуть на реалии окружающего мира особым взглядом. Классификация и элементы природы являются одними из главных средств изображения в поэзии поэта и поэтому имеют большое значение. Для Файнберга природные пейзажи — это не просто фон, а главное средство выражения человеческой психики и её особенностей. Особенно в вечерних и ночных пейзажах создатель передает

спокойствие, безмятежность и внутреннее созерцание в несравненном художественно-поэтическом стиле. Данная статья посвящена описанию природы и духовного спокойствия в поэме «Ночь» Александра Аркадьевича Файнберга.

Ключевые слова: ночной пейзаж, описание природы, поэтический образ, средства художественного изображения, деревенская жизнь, лирическое настроение, символ лунного света, музыкальность, поэтический тон, образность, духовное спокойствие, романтический пейзаж, философское размышление.

Aleksandr Arkadevich Faynberning “Kecha” she’ri nafis tabiat manzaralari bilan uyg’unlashgan ajoyib badiiy namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu she’rda shoir tungi tabiat manzaralarini, qishloq hayotiga xos bo’lgan osoyishta va sokin hayot tarzini hamda inson ruhiyatidagi osoyishtalik kayfiyatini o’ziga xos poetik til tasvirlari bilan ifodalaydi. She’r o’quvchini tinch, sokin kecha sahnasiga olib kirib, unda tabiat bilan uyg’unlikda umrguzaronlik qilish keakligi haqidagi g’oyalarni ilgari suradi.

KECHA

To‘lin oy falakda yonayotgan g‘o‘la,

Masjidlarda gumbazi osmonga bo‘la.

Asal hid taratgan jo‘ka shoxida

Bedana sayrog‘i tinmas g‘ulg‘ula.

Baquvvat chinorning soyasidagi

Kimsasiz choyxona ochiq bemalol,

Samovar yonida damini olib,

Chalqancha yotibdi choyxonachi chol.

Quduq tepasida ko‘lanka tashlab,

Egilib turibdi tol novdalari.

Yaproqlar ostidan ochiq ko‘ziga

Oqib tushayotir oy shu‘lalari.

Huv, olis daricha ortida esa,

Musiqa chaladi yarim tun tori.

Asal islarini taratar jo‘ka,

Tinmaydi sayroqi bedana zori.

She‘r boshidayoq shoir tungi osmon tasvirini yorqin obrazlar orqali tasvirlaydi. To‘lin oy “yonayotgan g‘o‘la”ga qiyoslanadi. Bu o‘xshatish orqali kecha manzarasining jozibasi va oy nurining yorqinligi yanada kuchaytiriladi. Masjid gumbazlarining osmonga bo‘y cho‘zishi esa she‘rda so‘z borayotgan manzaraga ma‘naviy ulug‘vorlik va muqaddaslik ohangini beradi.

Ijodkor jo‘ka daraxti hidini, bedananing tinmas sayrog‘ini tasvirlab, kechaning nafaqat ko‘rinishini, balki uning hid va tovushini ham ta‘riflaydi. Bunday detallar bilan tasniflash she‘rning naqadar tasvirga boy ekanligini ko‘rsatib beradi. Bularning barchasi nafaqat kechaning sokin manzarasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi, balki uning muhitini ham his qildiradi.

She‘rda kimsasiz choyxona, samovar yonida dam olayotgan choyxonachi chol obrazi kabi oddiy, biroq ta‘sirchan qishloq hayoti tasvirlari keltirilgan. Bu obrazlar sokinlik va hayotning tabiiy oqimini ko‘rsatadi. Choyxona bu qishloq ijtimoiy hayotining muhim maskanlaridan biridir. Lekin asarda bu faol maskan kimsasiz va tinch deya tasvirlangan. Bu o‘z navbatida tun sukunatini kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Choyxonachi cholning samovar yonida chalqancha yotishi hayotning sodda, ammo osoyishta onlarini tasvirlaydi.

She’rda oy nuri va soyalar orasida badiiy uyg’unlikning aks ettirilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Quduq tepasida egilib turgan tol novdalari, yaproqlar orasidan oqib tushayotgan oy shu’lasi tasviri tunning sirli va romantik muhitini yaratadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Kecha” she’ri tabiat manzarasi, qishloq hayoti va inson ruhiy sokinligini ifodalagan asardir. Shoir tungi tabiatni rang, hid va tovush bilan ta’riflash orqali kuchli badiiy-estetik asar yaratgan. She’rdagi tabiat manzaralari oddiy tasvir vositalaridan falsafiy ruh bag’ishlovchi qurulma darajasigacha ko’tariladi. Bu esa Faynbergning oddiy hayot manzaralaridan sehrliligi asarlar yarata olish qobiliyatini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Aleksandr Faynberg. Tanlangan she’rlar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2009.
2. Aleksandr Faynberg. She’rlar va dostonlar. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2015.
3. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2008.
4. O‘zbek adabiyoti nazariyasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2012.
5. Zamonaviy o‘zbek she’riyati tadqiqotlari. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2018.
6. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she’riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to‘plami.